ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Nozliya Normurodova**
Samixon Ashirboyev
Abdumurod Tilavov

Mas’ul kotib: Anvarbek Turdialiyev

Tahrir kengashi

Mominova Bag‘dan (Ostona), Mingboyev Nurlon (Chimkent), Ercan Alkaya (Turkiya), Turdimov Shomirza (O‘zRFA), Jo‘raqoziyev Nodirjon (VM), Alniyazov Ayitmurat (Nukus), Xolmanova Zulxumor (ToshDO‘TAU), Ibrohimov Yo‘ldosh (Nukus), Saidqulov Ilhom (ToshDO‘TAU), Murodova Nigora (Navoiy), Jabborov Xo‘jamurod (Qarshi), Darvishev Ibrohim (Namangan), Aliqulova Hulkar (ToshDO‘TAU), Xidraliyeva Zoxira (ToshDO‘TAU), Norboyeva Shukurjon (Urganch), Rahmonov Navro‘z (Navoiy), Ibragimova Zamira (Nukus), Hakimova Muhayyo ToshDO‘TAU), Umurzoqova Marhabo (ToshDO‘TAU), Ubaydullayev Alisher (O‘zMU), Alimardanov Elyor (ToshDO‘TAU), Egamqulov Kamoliddin (ToshDO‘TAU), Qodirov Umarjon (ToshDO‘TAU), Sayfullayev Baurjon (O‘zMPU).

“O‘zbekiston: til va madaniyat jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi № 308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. “O‘zbekiston: til va madaniyat jurnalining “Folklorshunoslik. Shevashunoslik” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, o‘zbek folklorining dolzarb masalalari, o‘zbek dostonchiligi, jahon folklori, folklor janrlari, turkiy xalqlar folklori, folklor va yozma adabiyot, adabiyotimizdagi folklor motivlari, o‘zbek shevalarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari, tarixiy dialektologiya, shevalarning sotsiolingvistik talqini, areal lingvistika, folklor dialektologiyasi, adabiy til va sheva munosabatlari, sheva ma’lumotlarini o‘zbek tili korpusiga teglash, dialektologiyaning nazariy asoslari, jahon dialektologiyasidagi ilg‘or g‘oyalarga oid tadqiqot natijalari nashr qilinadi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-un.uz

MUNDARIJA

Shevashunoslik

Marifatxon Anarbayeva
Turk-Barlos urug‘i nutqida saqlanib qolgan qadimiy turkiy lahja elementlari (Marhamat tumani misolida) 6

Adolat Bekturdiyeva
O‘g‘uz lahjasidagi so‘z birikmalari va yondosh til birliklari 13

Muattarxon Turdixo‘jayeva
O‘zbek tili milliy lingvistik atlasini yaratish tamoyillari 22

Feruza Aminova
Matnazar Abdulhakim she’riyatida morfologik dialektizmlarning aks ettirilishi 29

Durdona Ermatova
The historical development and modern aspects of evidentiality in uzbek language 36

Nazirov Salimbek
Ingliz va o‘zbek tillaridagi ertaklarda uchraydigan barqaror birikmalarni muqobillashtirish masalalari 48

Dilnavoz Asatullayeva
Umumta’lim maktablarida morfonologiyani o‘qitish metodikasi (yozma va og‘zaki nutq misollari asosida) 55

Dilso‘z Rahmonova
Samarqand qipchoq shevalarining areallari 62

Islom Bo‘riyev
Iboralar komponentlari tahlili: O‘TIL (6 jildli; 2022) materiallari asosida 70

Gavhar Toshtemirova
“Gulnor pari” dostonining fonetik -leksik xususiyatlari 80

Rustam Esanov
Xalq ertaklarida qo‘laniladigan ramzlarning lingvistik xususiyatlari . 88

Botir Raxmonov
Til va madaniyat munosabati, etnodialektal birliklarning lingvomadaniy talqini 97

Hayotxon Salayeva
Gurlan leksikasidagi ayrim so‘zlarning “Devonu lug‘otit turk” asari bilan qiyosi 105

Sadoqat Rajabova
Ishtixon shevasining o‘z va o‘zlashma qatlam leksikasi 116

Shahlo Ahmadjonova
Namangan qarluq shevalarining fonetik xususiyatlari va areal lingvistik o‘ziga xosliklari 129

Shirinoy Shuhratova
O‘zbek shevalarida kulolchilik terminlarining o‘rganilishi 138

ISSN 2181-922X 13 — 22

O‘G‘UZ LAHJASIDAGI SO‘Z BIRIKMALARI VA YONDOSH TIL BIRLIKLARI

Adolat Bekturdiyeva[1]

Abstrakt

Sintaksisning asosiy o‘rganish obektlaridan biri bo‘lgan so‘z birikmalarining dialektal matnlardagi ko‘rinishlarini adabiy til bilan bir xil deb bo‘lmaydi. O‘g‘uz lahjasi Xiva-Urganch areali shevalaridagi so‘z birikmalarining strukturasi bir qator individual xususiyatlarga ega. Adabiy tilda bir so‘z bilan ifodalangan birliklar, mazkur shevada so‘z birikmalari orqali shakllanadi, shuningdek, so‘z birikmalari bilan qarama-qarshi oppozitsiyada o‘rganiluvchi turg‘un birikmalar, qo‘shma so‘z va izofalarning ham dialektal o‘ziga xosliklari mavjud. So‘z birikmasi tarkibidagi mustaqil leksemalarning o‘zaro bog‘lanish jarayonida ham boshqa shevalar va adabiy til oppozitsiyasini ko‘rish mumkin. So‘z birikmalari o‘rtasidagi shakliy va mazmuniy sintagmatik munosabatlar mazkur sheva tabiati bilan izohlanadi.

Kalit so‘zlar: *so‘z birikmasi, semantik ellipsis, dialektal ellipsis, predikativ munosabat, nopredikativ munosabat, tobe aloqa, tobe va hokim bo‘lak, boshqaruvli aloqa, moslashuvli aloqa, bitishuvli aloqa, qo‘shma so‘z, izofa, turg‘un birikma.*

Kirish

Dialektal nutq o‘ziga xos sintaktik qurilishga ega. Unda gap tarkibidagi ayrim o‘ziga xosliklar, uslubiy takrorlar, emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lgan atov va so‘z-gaplar, ilova qurilmalari, gap tarkibida nisbatan erkin joylashgan gapning birinchi va ikkinchi darajali bo‘laklari asosida yuzaga kelgan inversiya hodisasi ko‘plab kuzatishimiz mumkin. Dialektal nutqda har doim adabiy so‘zlashuv nutqi yoki yozma nutqdagi kabi gapning chegarasini aniqlash qiyin. Chunki og‘zaki nutqning erkin shakli bu dialektal nutqdir. O‘zbek adabiy tilining uchta asosi bo‘lgan qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalari

[1]Adolat Bekturdiyeva – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktaranti
E-mail. adolatomonbayevna@gmail.com
https://orcid.org/0009-0007-7267-8776
Iqtibos uchun: *Bekturdiyeva A.* 2025. "*O‘g‘uz lahjasidagi so‘z birikmalari va yondosh til birliklari".* O‘zbekiston. til va madaniyat. Folklorshunoslik. Shevashunoslik. 2: 13-21. Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/UYWK4008

shevalarining har biri o‘ziga xos leksik, fonetik, morfologik va albatta, sintaktik xususiyatlarga ega. Dialektologiya sohasida bugungacha mazkur shevalarning adabiy tildan farqlanuvchi yoki adabiy til uchun asos bo‘luvchi leksik, fonetik va morfologik xossalari chuqur tahlil qilingan ilmiy ishlar mavjud. Biroq dialektal sintaksis borasidagi ishlar, nazarimizda, biroz e’tibordan chetda qolayotganday.

Asosiy qism

Xorazm dialektal zonasidagi sof o‘g‘uz shevalarining sintaktik xususiyatlari F.Adbullayev, Y.Jumanazarov, O.Madrahimovlar tomonidan qisman o‘rganilgan bo‘lsa-da, bugungi kundagi sheva vakillari nutqida qo‘llanilayotgan ayrim sintaktik qoliplarning qayta tahlil va talqin qilinishi dialektologoyadagi muhim masalalardan biridir. Xorazm dialektal zonasining Urganch-Xiva arealini sof o‘g‘uz elementlarini o‘zida aks ettirgan hudud deb aytishimiz mumkin. Masalaning mohiyatini anglagan holda sintaktik tahlil jarayonida, asosan, mazkur tumanlardagi Gandimyon, Polosulton, Pishkanik qishloqlaridan yozib olingan dialektal matnlardagi so‘z birikmalari va u bilan shaklan yondosh turuvchi izofa, ibora, dialektal ellipsis va qo‘shma so‘zlar sintaktik tamoyillar asosida o‘rganildi. Sheva materiallari sintaktik jihatdan tahlil qilinar ekan, uni adabiy tilning sintaktik tamoyillariga asoslangan holda so‘z birikmasi va gap sintaksisi doirasida o‘rganish maqsadga muvofiq. Sintaksis so‘z birikmasi va gap sintaksisi kabi ikki katta tarmoqni o‘z ichiga oladi. Har qanday sintaktik tahlil avvalo, so‘z birikmalarini ajratishdan boshlanadi. O‘g‘uz lahjasidan yozib olingan dialektal matnlarda so‘z birikmalari bir qator o‘ziga xosliklarga ega. Bilamizki, so‘z birikmasi hosil qilinishida ikki qism: hokim va tobe bo‘lak ishtirok etadi, mazmuniy va grammatik jihatdan bog‘lanadi. Har qanday so‘z birikmasida tobe bo‘lak hokim bo‘lak talab qilgan grammatik shaklda keladi. Dialektal mantlardagi so‘z birikmalarida ana shu grammatik shakllar sheva tabiatidan kelib chiqqan holda shakllanadi. Bugungi kundagi sintaktik tadqiqotlarni umumlashtirgan holda o‘g‘uz lahjasidagi so‘z birikmalarini qismlarining grammatik tabiatiga ko‘ra, hokim bo‘lakning qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanishi va tobe bo‘lakning sintaktik vazifasiga ko‘ra quyidagicha tasnifladik:

1) otli birikma; 2) fe’lli birikma;

O‘g‘uz lahjasi matnlarida ham adabiy tildagi kabi otli so‘z birikmasida hokim so‘z ot va otlashgan so‘zlar bilan ifodalansa, fe’lli so‘z birikmasida hokim so‘z sof fe’l bilan shakllanadi. Mazkur dialektga xos egalik va kelishik qo‘shimchalari shuningdek dialektal ko‘makchilar so‘z birikmalari tarkibidagi so‘zlarni o‘zaro bog‘lashga xizmat qiladi. Har qanday so‘z birikmasining tarkibiy qismlari moslashuv, boshqaruv va bitishuv munosabati asosida yuzaga chiqadi [Жуманазаров 1976;83]. Biroq mazkur ishimizda so‘z birikmala-

rining bog‘lanish usullari va ifoda turlariga chuqur kirmasdan, so‘z birikmasining ibora, izofa, dialektal ellipsis va qo‘shma so‘zlar bilan shakily-sintaktik munosabatlarini tahlil qilishga harakat qildik.

So‘z birikmasi va ibora. Bizga ma’lumki, ega va kesimning bog‘lanishidan farqli o‘laroq, so‘z birikmasi faqat ikkinchi darajali bo‘laklarning hokim bo‘lak bilan bog‘lanishini o‘z ichiga oladi. Shunga asoslangan holda o‘zbek tilshunosligida so‘zlarning tobe aloqasini ikki katta guruhga ajratish mumkin:

Predikativ aloqa (ega+kesim aloqasi);

Nopredikativ aloqa (ikkinchi darajali bo‘laklarning hokim bo‘lak bilan aloqasi).

Predikativ aloqa gapni, nopredikativ aloqa so‘z birikmasini tashkil qiladi [Махмудов, Нурмонов 1995;34].

Ammo shuni unutmaslik kerakki, har qanday nopredikativ bog‘lanish so‘z birikmalarini hosil qilmaydi. So‘zlarning birikma tarkibida erkin bog‘lanishi, so‘z jarayonida kengayuvchi bo‘laklar bilan zanjir hosil qilishi, yoki aksincha birikma tarkibidagi bog‘lanishning barqaror bo‘lib nutqqa tayyor holda olib kirilishi erkin va turg‘un bog‘lanishni yuzaga keltiradi. Anglashiladiki, erkin bog‘lanishdan so‘z birikmalari, turg‘un bog‘lanishdan esa frazeologizmlar shakllanadi. Har ikki birlikning o‘rganish doirasi alohida, ya’ni so‘z birikmasi sintaktik hodisa bo‘lsa, turg‘un bog‘lamalar frazeologiyada o‘rganiladi. Ammo o‘g‘uz lahjasidan yozib olingan dialektal matnlarda bir qator turg‘un birikmalar borki, ularni so‘z birikmalari bilan (shakliy yaqinlik) omonimik munosabatlarini kuzatishimiz mumkin:

Juvïlmaγan qaşïq - o‘ziga aloqador bo‘lmagan ishlarga aralashuvchi, be’tamiz odamga nisbatan qo‘llaniluvchi ibora:

Juvïlmaγan qašïqdi:n här väžä aralašavärmä.

So‘z birikmasi holida: *Juvïlmaγan qašïqda i:čibmän šorvanï.*

eçkini aldi ajaqı–hamma ishga birinchilardan bo‘lib tashabbus ko‘rsatuvchi odamlarga nisabatan ishlatiladigan ibora:

Ečkini äldi *ajaqï olïp juγ*ïravärma *kim nerä* čaqïrsa*.*

So‘z birikmasi sifatida: *Atïzdäji ečkini äldi ajaqï sïnïptï.*

qujïγa tüşgändin– hamma yer jimjit, sokin ma’nosidagi ibora.

Öjä *girsäm qujïγa tüšg*ändin *ječ kim joq.*

So‘z birikmasi sifatida: *Tašaγan čäläkim qujïγa tüškändin görimmin qaldï.*

uçïp tüşti– birdaniga qattiq qo‘rqish holatini ifodalovchi ibora.

Qapï qarsïldap bäklänjäninä učïp tüštim.

So‘z birikmasi: *Badiräk asmana bir učïp tüšti.*

azu dişi sorïldï – avaylab asragan boyligini yo‘qotib qo‘ygan yoki kimgadir berishga majbur bo‘lgan kishining holatini ifodalovchi ibora.

Säni däp ba pïlïmnï jeddi jata bärip azu dišim sorïldï.

So‘z birikmasi: *I:kki günnän bana ayri:-ayri: axi:rï azu diši sorïldï.*

ökçäsindä ajlanadï –odatda yosh kelin va qizlarga nisbatan chaqqon, epchil ma’nolarida qo‘llanadi.

Išu qi:znï gälin ätsä *oladï i:na* ökčäsindä *ajlanadï.*

So‘z birikmasi: *Aqšamqï tojda ojïnčï* ökčäsindä *ajlandï .*

üzinnän getti– bosar-tusarini bilmay qolgan kishilarga nisbatan ishlatiladi.

Mänsäpi ašïp dïm üzinnän *getti.*

So‘z birikmasi: *Dik qujašnï i:ssïsïnda duryanamï birdän* üzinnän *getdi.* (xushidan ketdi ma’nosida)

jipini uzi:n taşadï– biron ayb ish qilgan bo‘lsa ham indamasdan kuzatish.

Nerädoŋ baradï äkän *qanï däp i:ndämin jipini uzi:n tašadï.*

So‘z birikmasi: *Onaǯïn* čolašïp *tüšmäsin däp jipini uzi:n tašab qojdïm.*

Dialektal ellipsis. Dialektal nutqqa xos bo‘lgan kontaminatsiya hodisasi, ohang va emotsional-ekspessivlikni oshirish natijasida ma’lum bir nutqiy vaziyatda semantik ellipsislarni uchratishimiz mumkin. Shu bilan birga dialektal nutqda izofa munosabatini ifodalovchi yoki bir xil asosdan tashkil topgan so‘z birikmalari ham qo‘llaniladi. Bizga ma’lumki, elliptik qurilmalar, aosan, so‘zlashuv nutqiga xosdir. O‘g‘zaki nutq sintaksisini o‘rganishga asoslangan adabiyotlarda qayd etilganidek, ellipsislar til va nutq hodisasi sifatida mavjuddir. Dialektal matnlarda nutqiy ellipsislar nutq imkoniyatlarini hisobga olgan holda paydo bo‘lib, gap tarkibidan biror so‘z yoki bo‘lak tushirilganda yuzaga keladi. Nutqiy jarayonda u izohlagan ma’noni boshqa bir so‘z bilan ifodalash mumkin. Bu kabi nutqiy ellipsislarning so‘z birikmalari tarkibida sodir bo‘luvchi turini (boshqa nutqiy ellipsislardan farqlash maqsadida) semantik ellipsis deb atadik[Махмудов 1978;5].

Mazkur jarayonni o‘g‘uz lahjasidan yozib olingan dialektal matnlar tarkibidagi so‘z birikmalari asosida tahlil qilib ko‘rdik. Dialektal nutq talabi bilan gap tarkibidagi mantiqiy urg‘u olgan so‘zning semantikasiga bog‘liq holda bir yoki bir necha bo‘lakning tushib qolishi kuzatiladi. Buning natijasida ifodalanishi ko‘zda tutilgan asosiy fikr semantik ellipsis so‘zda saqlanadi. Bunday birikmalarni shartli ravishda *“dialektal ellipsis”* termini ostida berish maqsadga muvofiqdir.

Dialektal ellipsislar gapning biror bo‘lagiga mantiqiy urg‘u tushishi va tinglovchining asos-e’tiborini shu bo‘lakka qaratishi, emotsional-ekspressivlikka intilish, nutqning sodda va ixchamligini

ta’minlash asnosida yuzaga keladi. Mantiqiy urg‘u gap tarkibidagi biror bo‘lakka tushadi va uning natijasida ellipsis paydo bo‘ladi. Bilamizki, mantiqiy urg‘u olgan bo‘lak asosan, kesimdan oldin joylashadi. Bu esa o‘z navbatida gap tarkibidagi so‘zlarning o‘rniga ham ta’sir qiladi. Mantiqiy urg‘u olgan so‘z gap tarkibida muhim ahamiyat kasb etadi va unda ifodalangan semantikadan tushib qolgan bo‘lakning ma’nosi ham oydinlashadi. Quyidagi misollarda dialektal ellipsisning o‘g‘uz lahjasidagi bir qator ko‘rinishlarini keltirishimiz mumkin.

Unälärä gäjänlä nan japqan qalïp, xami:r qarγannï maxtap tašadïla.

Mazkur gapda uchta dialektal ellipsis mavjud bo‘lib, ularning qo‘llanilishi nutqni sodda va ixcham, fikrni esa lo‘ndagina bayon qilinishini ta’minlagan. Gapdagi ***gäjänla***- (aslida “kelgan odamlar” shaklidagi so‘z birikmasi), ***nan japqan***-(aslida “nonni yopgan odam” shaklidagi so‘z birikmasi), ***xamir qarγannï***-(aslida “xamirni qorgan odamni” shaklidagi so‘z birikmasi). Odatda bu kabi ellipsislar sifatlovchi-sifatlanmish tipidagi birikmalarda ko‘plab kuzatiladi. Shu bilan birga, hokim so‘z harakat nomi bilan ifodalangan boshqaruv munosabatidagi so‘z birikmalarida tobe so‘zga urg‘u tushirilsa, hokim bo‘lak nutq tarkibidan tushiriladi:

Günni gözzindä išläp xarïvädi:k mani suva jüvärdilä;

Öjlä sovïp getgänä äkäm pešä odïna getdi.

Birinchi gap tarkibida maqsad holi vazifasida kelgan ***suva*** so‘zi aslida *“suv olib kelishga”* shaklidagi boshqaruvli so‘z birikmasi bo‘lib, logik urg‘u ta’sirida harakat nomi, ya’ni *olib kelish* tushirilgan. Ikkinchi gapda esa ikkita dialektal ellipsis ***pešä*** *va* ***odïna*** so‘zlari orqali yuzaga chiqqan, ya’ni ***pešä*** so‘zi aslida “(loy va g‘ishtdan qo‘lbola usulida yasalgan) pechga yoqishga” shaklidagi birikma bo‘lib, jo‘nalish kelishigidagi harakat nomi tushirilgan va ***odïna*** so‘zida ham aynan shunday holat kuzatiladi, ya’ni “o‘tin olib kelishga” shaklidagi birikmada harakat nomi tushib, logik urg‘u ***odïna*** so‘ziga ko‘chib o‘tgan. Bu kabi birikmalarni o‘zbek tilining boshqa shevalarida ham uchratishimiz mumkin.

Izofali birikmalar. Bilamizki, izofali birikmalar sintaktik kategoriya sifatida adabiy tildagi kabi shevalarda ham faol qo‘llaniluvchi birliklardir. Izofa ikki otning aniqlovchilik munosabatiga kirishuvidir. O‘zbek adabiy tilida bo‘lgani singari o‘g‘uz lahjasi shevalarida ham arab va fors tilidan o‘zlashgan, shuningdek turkiy izofalarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Bu bejizga emas, chunki tarixiy yozma manbalardan ayonki, Qadimiy Xorazm tilida yaratilgan barcha asarlar leksikasida forsiy so‘zlar salmoqli qismni egallayd. Xorazm shevalari leksikasini chuqur o‘rgangan shevashunos olim F.Abdulla-

yev oʻgʻuz dialektida faol qoʻllanuvchi ***kündä, paza, käpčä, kätxuda, könä, bädroj, ǯorap, laš*** kabi soʻzlarni fors-tojik tilidan oʻzlashganligini aytadi[Абдуллаев 1961; 141]. Xiva shevasi leksikasini oʻrgangan shevashunos olim O.Madraximov esa, Xiva shevasining asosiy tarkibiy qismi turkiy soʻzlar, undan keyingi oʻrinda esa forsiy oʻzlashmalar ekanligini qayd qiladi [Мадрахимов 1981]. Janubiy Xorazm shevalarini sintaktik tahlil qilgan Y.Jumanazarov Xorazm shevasidan yozib olingan dialektal matnlarda izofaning bir qancha koʻrinishlari mavjudligini alohida ta'kidlab oʻtadi [Жуманазаров 1976;15].

Toʻplangan sheva matnlarida ***pāki pāy, āpäti ǯān, bülbüli bostān, bälaji bäd, täki paj, rojï sija, duojï bäd, maŋlajï qara, i:lmi tïrapï****(aslida turoba ilmi, lekin bugungi kunda "ma'lum bir sohaning mayda elementalrigacha chuqur oʻrgangan odam" ma'nosida qoʻllanadi)****, därdisär, äpti ändam*** *(kular yuz lekin, izofaning manosi bugungi kunda salbiy boʻyoq kasb etgan).* Shevada qoʻllaniluvchi bir qator izofalarning bugungi kunda yaxlit soʻz holiga kelib qolganini ham uchratishimiz mumkin, ***pätäk*** *(aslida poyi tag-oyoq kiyimning ichiga qoʻyiladigan, oyoqni issiq saqlaydigan kigizdan tikilgan moslama)****, äbǯöš****(obi joʻsh-qaynagan suv, ammo shevada mayizning mayda qora uzumdan tayyorlangan turiga aytiladi)* ***märgimiš*** va shunga oʻxshash forsiy izofalarni misol tariqasida keltira olamiz.

Soʻz birikmasi va qoʻshma soʻz. Bilamizki, soʻz birikmasi soʻzdan koʻra kengroq tushuncha ifodalaydi. Harakat-holat yoki narsa-predmetning nutq vaziyatidagi mohiyatini toʻliq ochib beradi va real tasavvur uygʻotadi. Bundan farqli ravishda, qoʻshma soʻzlar yagona tushunchani ifodalashga asoslanadi. Biroq dialektal matnlardagi (adabiy tilda ham) barcha qoʻshma soʻzlar soʻz birikmalarining tarixiy taraqqiyoti natijasida, nutqiy ixchamlik ehtiyoji bilan qoʻshma soʻz holiga kelganini unutmasligimiz kerak. Soʻz birikmalari qoʻshma soʻzlar hosil boʻlishi uchun asosdir. Oʻgʻuz lahjasida shunday birliklar borki, ular aslan soʻz birikmasi tipida shakllangan, lekin keyinchlik dialektal nutq talabi bilan ular oʻrtasidagi sintaktik aloq yoʻqolib, ya'ni qismlari alohida sintaktik funksiya bajarmasdan yagona soʻz holida ma'noni xususiylashtirgan va qoʻshma soʻz holiga kelib qolgan. Bu kabi birliklar dialektal sintaksisda yagona soʻz sifatida qabul qilinadi. Masalan, Xiva-Urganch shevalarida faol qoʻllanuvchi ***mäkkäsačaq, sečätut, bālari, qoqäri:k (aslida oʻrikning qoqi-izofa), xālabi:ji, gäli:nbarmaq, lampaši:šä, tandïrdo:n*** kabi ot soʻz turkumiga oid soʻzlar tarixan qaratqich va qaralmish birikuvidagi soʻz birikmasi boʻlib, ular orasidagi qaratqich kelishigi va egalik qoʻshimchalari oʻz ahamiyatini yoʻqotgan. Bugungi kunga kelib, qoʻshma soʻz sifatida shakllangan.

Shuningdek dialektdagi koʻpchilik qoʻshma soʻzlarni tarixan bitishuv munosabati asosida shakllanganligini ***asmašorva, bāl-***

chi:ŋiri:k, aqjaγ, taxtapiši:k, dgäsmalkädi, itüzim, qarakäsäk, čilläžübbä, qalamqašïq kabi ot turkumiga oid so‘zlar misolida ko‘rishimiz mumkin. Urganch-Xiva shevasida faol qo‘llaniluvchi ***čatsipsä, etčapar, unälär, su:säpäk, xi:njaqar, sačösär*** kabi qo‘shma otlarni esa boshqaruv yo‘li bilan yasalgan qo‘shma otalar sirasiga kiritishimiz mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek dialektologiyasida sintaktik birliklarni o‘rganish muhim bir jarayondir. Dialektal matnlardagi so‘z birikmalarning o‘ziga xos tuzilishi, leksik va grammatik munosabatga kirishuvi va ana shu munosabat asosida yuzaga kelgan tur va shakllarni o‘rganish dialektal sintaksisning muhim tomonini tashkil qiladi. Dialektal so‘z birikmasi nihoyatda murakkab tuzilma, u ham leksik jihatdan ham grammatik jihatdan chuqur yondashuvga ehtiyoj sezadi. Shuningdek, shevalardagi barcha so‘z birikmalari uchun umumiy bitta qolipni tanlab olish qiyin. Dialektal matnlarda so‘z birikmalari bilan oppozitiv munosabatda bo‘luvchi bir qator birliklar mavjud. Bu kabi til birliklarini sheva tabiatidan kelib chiqqan holda sintaktik tahlil qilish lozim. Yakuniy fikr sifatida ayta olamizki, dialekatl so‘z birikmalari va unga yondosh til birliklarini tasniflash va ularni o‘rganish masalasi bugungi kun o‘zbek shevalari sintaksisining dolzarb muammolaridan biridir.

Adabiyotlar

Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикасини ўрганиш масалалари. – Тошкент: Фан, 4-б. 20.

Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2005.

Жуманазаров Ю. Ўзбек тили жанубий Хоразм (ўғуз) диалектининг синтактик курилиши. – Тошкент: 1976.

Туропова М. Ўзбек шевалари синтаксиси. – Тошкент.1984.

Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. Фан. – Тошкент: 1973.

Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент, 1966.

Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.

Anorbekova A., Mirzayeva Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2011.

G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. – Toshkent, 1965.

Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). – Toshkent, 1995.

Sayfullayeva R., Mengliyev B. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009.
Sharipov M. Hozirgi o‘zbek tilida so‘z birikmalari sintaksisi. – Toshkent, 1918.

PHRASEOLOGICAL UNITS AND RELATED LINGUISTIC UNITS IN THE OGUZ DIALECT

Adolat Bekturdiyeva[1]

Abstract

The appearance of word combinations in dialectal texts, which are one of the main objects of study of syntax, cannot be considered the same as in the literary language. The structure of word combinations in the dialects of the Khiva-Urgench area of the Oguz dialect has a number of individual features. Units expressed by one word in the literary language are formed in this dialect through word combinations, and stable combinations, compound words and isophanes, which are studied in opposition to word combinations, also have dialectal specificities. In the process of interconnection of independent lexemes in the composition of a word combination, one can also see the opposition of other dialects and the literary language. The formal and substantive syntagmatic relations between word combinations are explained by the nature of this dialect.

Keywords: *word combination, semantic ellipsis, dialectal ellipsis, predicative relation, non-predicative relation, subordinate relation, subordinate and dominant clause, controlling relation, coordinating relation, coordinating relation, compound word, isophane, stable conjunction.*

References

Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикасини ўрганиш масалалари. – Тошкент: Фан, 4-б. 20.
Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи. -Т.: Фан, 2005.
Жуманазаров Ю. Ўзбек тили жанубий Хоразм (ўғуз) диалектининг синтактик курилиши. – Тошкент:

[1]*Adolat Bekturdieva* – PhD student of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi,
E-mail: adolatomonbayevna@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0007-7267-8776
For citation: *Bekturdieva A.* 2025. *Phraseological units and related linguistic units in the Oguz dialect.* Uzbekistan. Language and Culture. Folklore. Dialectology. 2: 13-21. Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/UYWK4008

1976.
Туропова М. Ўзбек шевалари синтаксиси. – Тошкент.1984.
Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси. Фан. – Тошкент: 1973.
Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: Фанлар академияси нашриёти. 1966.
Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
Anorbekova A., Mirzayeva Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2011.
G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. – Toshkent, 1965.
Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). – Toshkent, 1995.
Sayfullayeva R., Mengliyev B. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009.
Sharipov M. Hozirgi o‘zbek tilida so‘z birikmalari sintaksisi. – Toshkent, 1918.

Jurnal 2017-yil 26-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. No 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy. Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

E-mail: uzlangcult@gmail.com